

Date: 17<sup>th</sup> January-2025

ASQAD MUXTOR SHE'RIYATIDA HAYOT VA UMR HAQIDA  
MULOHAZALAR

Haytboyeva Maftuna

Urganch davlat universiteti magistranti

**Annotatsiya:** Maqolada Asqad Muxtorning falsafiy qarashlari, xususan hayot, uning mazmuni, umr haqidagi she'rlari tahlil qilingan. Shoir falsafasining hayotiy asoslari ko'rsatib berilgan va fikrlar misollar bilan izohlangan.

**Kalit so'zlar:** lirika, hayot, falsafa, umr, yashash, hayotiy misol, mulohazakorlik, falsafiy lirika, she'riyat.

**Аннотация:** В статье анализируются философские воззрения Аскада Мухтара, особенности его стихов о жизни, ее смысле и быте. Показаны жизненные основы философии поэта, идеи объяснены на примерах.

**Ключевые слова:** лирика, жизнь, философия, жизнь, проживание, жизненный пример, размышление, философская лирика, поэзия.

**Abstract:** The article analyzes the philosophical views of Asqad Mukhtar, especially his poems about life, its meaning, and life. The vital foundations of the poet's philosophy are shown and ideas are explained with examples.

**Key words:** lyric, life, philosophy, life, living, life example, reflection, philosophical lyric, poetry.

Adabiyot olamida ijodkorlar serqirra bo'lishi mumkin, ammo ularning ayni bir sohadagi izlanishlari, qoramalari alohida eslanadi, ta'kidlanadi. Xususan, Shuhrat o'zining realistik nasri bilan, G'afur G'ulom, asosan, lirikasi bilan, Fitrat dramatik asarlari bilan, Cho'lpon she'riyati bilan kitobxonlar e'tirofiga sazovor bo'lgan. Asqad Muxtor ham o'ta iste'dodli, serqirra shaxs sifatida nasr, nazm, publitsistika, tarjima, dramaturgiyada faoliyat olib borgan bo'lsa, ahamiyatli tomoni shundaki, u bu sohalarning barchasida ham birday muvaffaqiyatga erishdi. Uning romanlari qo'lma-qo'l o'qildi, she'rlari yod olindi, sahna asarlari muxlislar tomonidan iliq qarshilandi, tarjimalari jahon she'riyati durdonalarini o'zbek kitobxonlariga taqdim etdi. Qolaversa, biz bugun tahlilga tortgan lirikasi ham adabiyotshunoslar tomonidan «falsafiy lirika» deb nomlanishi bejiz emas. Shoir o'z she'rlarida chuqur mulohazakorlikka asoslangan kuzatishlarini aks ettirib bergan, deyish mumkin. Umri davomida barcha ko'rgan-kechirganlarini faylasufona fikrlar orqali o'z ijodiga singdirgan shoir hayot va uning ma'nosi haqida ham ancha xulosalar chiqargan. Quyida uning shu mavzudagi she'rlarini tahlilga tortamiz.

Asqad Muxtor ham shoir, ham inson sifatida umrning qisqaligini teran anglagan edi. Xususan, shoir «Umr» she'rida vaqtning qanchalik tez o'tib ketishiga urg'u beradi:

*Kuni kecha shu so'rida yotganimda*

*Oy shu'lasi tushmas edi yuzlarimga:*

*Yaproqlarning titroq, yashil sharpalari*



Date: 17<sup>th</sup> January-2025

*Orom olib kelar edi ko 'zlarimga.  
Bugun bo 'lsa tanga-tanga nur tushipti.  
Mijjam horg 'in, uyqu bermas yorug ' yulduz.  
Birdaniga yuragim shuv etib ketdi:  
Kuz kelipti, kuz...[2,44]*

Lirik qahramon so'rida yotar ekan, xayol suradi, kechagina shu yerda yotganida yashil yaproqlar oy nurini o'tkazmas edi, bugun esa tanga-tanga nur ko'rina boshlabdi-ya'ni kuz kelib, barglar siyraklasha boshlagan. Shu tufayli uning yuragiga qo'rquv kiradi: kuz kelibdi! Aslida, qo'rquvning sababi to'kin-sochinlik bo'lgan kuzning kirib kelishi emas, balki fasllarning kunlarday tez almashishi edi. She'rni yanada chuqurroq tahlil qiladigan bo'lsak, yoz-yoshlik ramzi, kuz esa o'rta yasharlikni bildiradi. Lirik qahramonni qo'rqitgan haqiqat-kuzning tugab, qishning kelishi-qarilik davriga yaqin qolgani bo'lishi mumkin. She'rning «Umr» deya nomlanishi ham yoshlikning kunlarday tez o'tib, qarilikka yetishgacha bo'lgan davr juda qisqa ekanligini tasdiqlaydi. Umrning boshi va oxiri haqidagi xulosalarni Asqad Muxtorning boshqa she'rlarida ham ko'plab uchratish mumkin. «Ikki eshik orasi» she'ri ham bu borada diqqatimizni tortdi. Undagi lirik qahramon o'zining 50 yil oldingi sevgilisiga o'xshaydigan qizni uchratib qolib, uning ortidan ergashib trolleybusga minsa, qiz uning yoshini hurmat qilib «buvajon» deya joy beradi. Shu voqeani tasvirlar ekan, shoir ajoyib xulosa chiqaradi:

*Xotira –ovunchoq, goh berar firib,  
Umr esa bir tutam, umr bir siqim.  
Qarang, bir eshikdan yigit bo 'lib kirib,  
Ikkinchi eshikdan chol bo 'lib chiqdim.[2,42]*

Darhaqiqat, umr yo'li ikki eshik orasidagi masofa qadar qisqa, shoir ta'biri bilan aytganda «bir tutam». Yoshlikda vaqt o'tganini sezmaymiz, kiprik qo'q'wunimizcha qarilik eshigiga kelib qolgan bo'lamiz. Xuddi shu fikrlarni shoir o'z so'zi va o'z tasviri bilan ta'sirchan tarzda ifoda etgan.

Umr qanchalik qisqa bo'lmasin, shoir yashab o'tilgan umrlar izsiz ketadi, degan fikrda emas. Bu boradagi mulohazalari «Umr yo'li» she'rida aks etgan:

*Umr yo 'li oyoq izi emas.*

*Uni na qor, na chang bosa oladi.  
U qora chiziqday, Yo nurday muqaddas  
Bo 'lib el ko 'nglida mangu qoladi.[2,23]*

Dunyoga kelar ekan, hech kim shunchaki yashab o'tib ketmaydi. Har bir insondan yo yaxshi, yoki yomon nom qoladi. Asqad Muxtor nazarida yaxshi nom bilan bosib o'tilgan umr-nurga qiyoslansa, yomonlikka to'la umr qora chiziq sifatida bunga qarshi qo'yilgan. Tarixda Diana ibodatxonasini yoqib yuborgan Gerostatratni, yoki 2-Jahon urushini boshlagan Gitlerni ana shunday qora chiziq kabi iz qoldirdi, deyish mumkin. Insonga shu qadar uchqur va qisqa umr berilar ekan, o'zidan yaxshi nom qoldirishi shart-



Date: 17<sup>th</sup> January-2025

shunday falsafa bilan fikr qilgan shoir yana bir she'rida endi o'rtaga savol tashlaydi: «mendan nima qoladi?» va bu savolga o'zi javobni ham topib beradi:

*Ammo ko'zim, ko'zim qolar faqat,  
Ko'zim yonar misli mangu alanga:  
She'rlarimni o'qiganlar shoyad  
Mening ko'zim bilan boqar olamga.[2,48]*

Shoir o'zidan she'r qoldirib ketayotganiga emas, ana shu she'rlariga singgan fikrlarini kelajakka qoldirayotganiga g'ururlanadi. Har bir shoir uchun o'zidan kitob qoldirib ketish faxrli vazifa, aslida. Ammo Asqad Muxtor shunchaki o'qishga arziydigan nimadir qoldirib ketish bilan kifoyalanmoqchi emas. Uning uchun she'rlari bir vosita xolos, asosiysi esa shoirning falsafasi ana shu she'rlari yordamida kitobxonlar diliga ko'chishidir. Aynan Asqad Muxtorning hayotiy xulosalari va butunboshli falsafasi o'zidan keyin ham asrlar mobaynida alanga kabi o'chmasdan yonib, avlodlarga yo'l ko'rsatishga arziydi. She'rdagi ko'z timsoli esa dunyo haqidagi xulosalar ramzini o'zida tashigan.

Umrning shirinligi haqidagi fikrlar ming yillardan buyon ohori to'kilmay qayta-qayta shoirlar tomonidan kuylab kelinmoqda. Lekin uning shirinligiga sabab qisqaligigina emas. Mulohazakor shoir buning ham o'ziga xos sababini ochiqalaydi:

*Asli shundayligi juda oqilona,  
Balki hayot siri shunda yashirin.  
Balki takrorlanmas bo'lgani uchun  
Umr ham shunaqa bebaho, shirin.[2,95]*

Nima tanho bo'lsa, o'sha barcha uchun qadrlil bo'ladi, ko'pincha. Hayotimizda ham bir martagina yuz bergan voqealar ko'proq esimizda qolishga moyil: ilk marta birinchi sinfga borganimiz, ilk muhabbatimiz, ilk maoshimiz– barchasi haqidagi xotiralar eslanganida yurakning allaqayerida yoqimli hislarni qo'zg'atadi. Buning sababi ham ularning bir marta yuz bergani va boshqa takrorlab bo'lmasligidir. Umrning shirinligi borasida mulohaza qilgan shoir ham shuni nazarda tutib xulosa chiqaradi: umrning hech bir daqiqasini ortga qaytarib bo'lmaydi, har bir kunni va har bir lahzani ham faqat bir marta yashaymiz, eng baxtli va hatyo eng baxtsiz lahzalar ham bir martadan his qilinadi, aynan shular tufayli esa umr shirin tuyuladi.

Asqad Muxtor o'z umrining ezguliklar bilan eslanishini, izsiz ketmasligini, abadiylikka daxl qilishini istaydi. Uning bu istagi, qaysidir ma'noda ishonchi uning she'rlarida ham sezilib turadi. Shoirning «Men yasharman» she'rida ham shunday umid borligini ko'ramiz:

*Shu qadar she'rlarim ko'pki qalbimda,  
Barin aytolmasam netarman?  
Davrnig yallig'idir qaynoq hislarim,  
Dilda she'rim bilan ketarman.*

*Ayta olganlarim kimgadir hamroh,  
Aytolmaganim ham o'lmas, ular bor:*



Date: 17<sup>th</sup> January-2025

*Agar keyin birov shunday she'r aytsa,  
Mening hislarim ham bo'lur daxldor.[2,34]*

Shoir zoti doim shoshilib yashaydi. Ichidan qaynab chiqayotgan fikrlarini, ilhomini, hislarini insonlarga yetkazishga shoshiladi. Yuqoridagi she'rda ham lirik qahramon-shoir (ushbu she'rda bu ikki tushuncha birlashib ketgan) davrning yallig'iga– avj olayotgan kasalligiga qarshi paydo bo'layotgan hislarini aytishga ulgurmay vafot etishdan qo'rqadi. Hayot yo'liga e'tibor beradigan bo'lsak, Asqad Muxtor ijod qilgan davr ham anchagina notinch va haq so'zga qarshi senzura ko'pchilikni domiga tortishga ham ulgurgan edi. Shu tufayli ichida yallig'lanayotgan hislarini o'zi ayta olmasa ham, o'zidan keyin bularni aytadigan kimdir topilishiga ishonadi va o'sha she'rlarga ham o'zining hislari daxldor bo'lishini oldindan aytib ketadi. Shoirning aqli dunyo falsafasi bilan, qalbi esa dunyo g'ami bilan o'rtanar edi. «Men dunyoga kelib dunyo orttirdim» she'ridan shunday xulosaga kelish mumkin:

*Men dunyoga kelib dunyo orttirdim,  
Hammasini qoldirib ketarman.  
Qalbni esa so'nggi hujayrasigacha  
Lovullatib yondirib ketarman.[2,93]*

Haqiqatan ham, Asqad Muxtor dunyoga kelib mol-dunyo, boyluk emas, boy mulohaza, solim aql orttirdi, o'zgalarning tashvishi bilan yashay oladigan qalbni ko'tarib yurdi. Uning niyati qalbini so'nggi hujayrasigacha xalq dardida yondirish edi, shoirning vafoti kitobxonlar-u adabiyotshunoslarning ham yuragini yondiradigan voqea bo'ldi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Asqad Muxtor o'zbek she'riyatida o'z falsafasi bilan o'chmas iz qoldirdi. Uning hayot va umr haqidagi qarashlari ham ana shu falsafaning bir qismi sifatida o'quvchilar uchun o'ziga xos yo'llanma sifatida abadiy yashaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. N. Rahimjonov. Asqad Muxtor poetikasi. –Toshkent: “G'afur G'ulom”, 2003.
2. Saylanma. Turkiy adabiyot durdonalari:Asqad Muxtor, 21-jild. –Toshkent: “O'zbekiston”, 2022.
3. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.
4. Sulonov I. Adabiyot nazariyasi. –Toshkent: “O'qituvchi”, 1980.

